

“TASDIQLAYMAN”
Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza
qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi
huzuridagi O‘rmon xo‘jaligi
agentligi direktori



N.Bakirov

2023 yil.

**O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim
o‘zgarishi vazirligi huzuridagi O‘rmon xo‘jaligi agentligining murojaatlarni
+998 71 207 88 77 raqamli ishonch telefoni orqali qabul qilish**

REGLAMENTI

1. Xizmatni yoritish

1.1. Xizmat nomlanishi

Murojaatlarni +998 71 207 88 77 raqamli “Ishonch telefoni” orqali qabul qilish.

1.2. Xizmat natijasi

Agentlikka kelib tushgan murojaatlarning o‘z vaqtida, to‘liq va qonun talablariga qat’iy
rioya etgan holda ko‘rib chiqilishini tashkil etish va nazorat qilish, bu borada tezkor axborot
almashinuvini ta’minalash orqali fuqarolarning huquq va manfaatlarini ta’minalash.

1.3. Xizmat ko‘rsatish organi

O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi
vazirligi huzuridagi O‘rmon xo‘jaligi agentligi.

1.4. Huquqiy asos

O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 11 sentabrdagi “Jismoniy va yuridik
shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-445-sonli Qonuni, Vazirlar Mahkamasining
2021 yil 3 apreldagi “Aholi va tadbirkorlik subyektlariga ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari
to‘g‘risida ma’lumot berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi
179-sonli qarori.

1.5. Xizmatdan foydalanuvchi

O‘zbekiston Respublikasining Jismoniy va yuridik shaxslari yoki ularning qonuniy
vakillari.

1.6. Ijro muddati

O‘zbekiston Respublikasi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonundan kelib chiqib, murojaat masalani mazmunan hal etishi shart bo‘lgan O‘rmon xo‘jaligi agentligiga kelib tushgan kundan e’tiboran o‘n besh kun ichida, qo‘srimcha o‘rganish va (yoki) tekshirish, qo‘srimcha hujjatlarni so‘rab olish talab etilganda esa, bir oygacha bo‘lgan muddatda ko‘rib chiqiladi.

Murojaatlarni ko‘rib chiqish uchun tekshirish o‘tkazish, qo‘srimcha materiallarni so‘rab olish yoxud boshqa chora-tadbirlar ko‘rish zarur bo‘lgan hollarda, ularni ko‘rib chiqish muddatları O‘rmon xo‘jaligi agentligi rahbari tomonidan, istisno tariqasida asoslantirilgan bildirgi orqali ko‘pi bilan bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin, bu haqda murojaat etuvchiga xabar qilinadi.

Taklif O‘rmon xo‘jaligi agentligiga kelib tushgan kundan e’tiboran bir oygacha bo‘lgan muddatda ko‘rib chiqiladi, qo‘srimcha o‘rganishni talab etadigan takliflar bundan mustasno, bu haqda taklifni kiritgan jismoniy yoki yuridik shaxsga o‘n kunlik muddatda yozma shaklda xabar qilinadi.

1.7. So‘rovnama berish muddati

So‘rovnama berish muddati ko‘zda tutilmagan.

1.8. Tasdiqnama yuborish muddati

“Ishonch telefoni” orqali qilingan murojaatlar qabul qilinganligi to‘g‘risida tasdiqnama yuborish ko‘zda tutilmagan.

1.9. Ko‘rsatiladigan xizmat turlari

- Fuqarolar murojaatlarini qabul qilib olish.
- Fuqarolarda yuzaga kelgan savollarga axborot berish.

2. Xizmat oluvchilarga ma’lumot berish

2.1. Ma’lumot hajmi va tarkibi:

O‘rmon xo‘jaligi agentligi sohaviy xizmatlari bo‘yicha ko‘rib chiqilgan murojaatlar bo‘yicha yakuniy javob xatida murojaatda keltirilgan masalaning yechimi yuzasidan aniq ma’lumotlar bayon etiladi.

2.2. Batafsil ma’lumot berish

Bir shaxsning aynan bir masala bo‘yicha oldingi murojaatiga javob berilmayotganligi

haqidagi murojaati agar uni qonunda belgilangan ko‘rib chiqish muddati o‘tmagan bo‘lsa bu haqda muallifga tushuntiriladi.

2.3. Murojaat bo‘yicha huquqiy maslahat berish

O‘rmon xo‘jaligi agentligi xodimlari tomonidan murojaat mualliflariga huquqiy maslahat berilishi taqiqlanadi.

2.4. Kengaytirilgan holda xabardor qilish

O‘rmon xo‘jaligi agentligi “Ishonch telefoni” raqamlari hamda murojaatlarning ko‘rib chiqilishi ahvoli haqidagi statistik ma’lumotlar bilan urmon.gov.uz rasmiy veb sayti orqali tanishish mumkin.

3. Xizmat ko‘rsatish

3.1 Ish vaqtি

Murojaatlar “Ishonch telefoni” orqali 24 soat davomida uzlusiz qabul qilinadi.

4. Xizmat ko‘rsatish tartibi

4.1. Xizmat ko‘rsatish uchun undiriladigan haq

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish xizmati – bepul.

4.2. Talab qilinadigan hujjatlar

Jismoniy shaxsning murojaatida jismoniy shaxsning familiyasi (ismi, otasining ismi), uning yashash joyi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatilgan va murojaatning mohiyati bayon etilishi kerak. Yuridik shaxsning murojaatida yuridik shaxsning to‘liq nomi, uning joylashgan yeri (pochta manzili) to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatilgan va murojaatning mohiyati bayon etilishi kerak.

4.3. Xizmat ko‘rsatishning ichki-idoraviy harakatlari

O‘rmon xo‘jaligi agentligida “Ishonch telefoni” dispecherlar guruhi tashkil etilgan bo‘lib, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan qo‘ng‘iroq qilib, qoldirilgan murojaatlar dispecher tomonidan murojaat etuvchiga murojaatning qabul qilish va ko‘rib chiqish tartibi bo‘yicha tushuntirishlar berib, murojaatning mazmuni, o‘rmon xo‘jaligi sohasidagi qonunchilikning buzilish holati aniq va to‘liq yoritilgan holda ma’lumot hamda murojaat etuvchiga ko‘rilgan choralar haqida rasmiy ravishda javob yuborish uchun uning shaxsi, manzili va telefon raqamlari haqida ma’lumotlar so‘rab olinib, yuritilayotgan “Ishonch telefoni”ga tushgan murojaatlarni qayd qilish kitobiga ro‘yxatga olinadi.

“Ishonch telefoni”ga tushgan murojaatlar yuzasidan dispecher xodimlari tomonidan murojaatning mazmuni, sodir bo‘lgan qonunbuzarlikning joyi, vaqtি va manzili ko‘rsatilgan holda ma’lumot tayyorlanib, o‘rnatalgan tartibda rasmiylashtirilib, agentlik rahbariyatiga taqdim qilinib, ijroga qaratiladi.

4.2. Rad etish asoslari

Muallif tomonidan shaxsiga oid ma'lumotlar berilmagan taqdirda, unga O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida»gi Qonuniga asosan murojaati ko‘rib chiqilmasligi tushuntiriladi.

5. Sifatni ta'minlash

5.1. Sifat ko‘rsatkichlari

Jismoniy va yuridik shaxslarning O'rmon xo‘jaligi agentligiga kelib tushgan murojaatlarini amalga oshirishlari uchun qulay sharoitlar yaratish, shuningdek ularning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini samarali ta'minlash.

5.2. Sifatsiz xizmatdan shikoyat etish

Ko‘rsatilgan xizmatdan qoniqish hosil qilinmaganida, jismoniy va yuridik shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega.